

MODAL FE'L VA SO'ZLAR MODALLIK KATEGORIYASINING IFODA VOSITALARI SIFATIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17388786>

Abduxalimov Abdulaziz Abdumutal o'g'li

Andijon davlat texnika instituti Tillar va gumanitar fanlar kafedrasi assistenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada modallik kategoriyasining lingvistik tabiatini yoritish hamda uning ifoda vositalari sifatida modal fe'l va modal so'zlarning o'rni tahlil qilinadi. Modallik til birliklarining ma'nodagi munosabatini, so'zlovchining voqelikka bo'lgan qarashini ifodalovchi muhim grammatik-semantik kategoriya sifatida qaraladi. Ingliz va o'zbek tillarida modal fe'l va so'zlarning qo'llanish xususiyatlari, ularning semantik-pragmatik jihatlari hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan ma'no siljishlari misollar asosida ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari modallikning grammatik va leksik vositalar orqali ifodalanishida tilga xos farqlarni ochib beradi hamda tarjimashunoslik va amaliy lingvistika uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar

modallik, modal fe'l, modal so'z, grammatik kategoriya, semantika, pragmatika, tarjima, ingliz tili, o'zbek tili.

O'zbek tilidagi modal ifoda vositalarining mustaqil (yaxlit) kategoriya sifatida ajratilishi 15-20 yil ichidagi yangilikdir. Oxirgi yillarda turk tillari, shu bilan birga o'zbek tili modal so'zlari modal so'zlari mustaqil bir kategoriya sifatida tan olindi va uch etapga bo'linadigan tarixiga ega.

Birinchi etapda modal so'zlar asosan ravish, yuklama, undov yoki oddiy bir tuslanmaydigan so'z tarkibida, sintaktikada esa – kirish so'z sifatida ko'rib chiqiladi.

Ikkinchi etapda esa ularni morfologiya qismidan chiqarib tashlanadi va sintaksis ob'ekti sifatida kirish so'z sifatida ko'rib chiqiladi.

1839 yili professor Kozimbek bu so'zlarni ravish tarkibida ko'rib chiqadi. Ular bildirgan ma'nolarga qarab, ravishlarni sinfiylashtiradi. U ularning o'rtasida, masalan, shubha ravishini – balki (*perhaps*) va tasdiq ravishiga – albatta (*of course*) ajratadi.

Xuddi shuni chet el turk tilshunoslarining ishlarida ham ko'rish mumkin. Ular bu so'zlarni faqatgina ravish emas, yuklama sifatida ham ko'rib chiqadilar.

Muallif soʻzlovchining gapga boʻlgan munosabatini ifodalay turib, gap boʻlamlari bilan bogʻlanmaydi deb hisoblaydi va “shubhasiz”, “ehtimol”, “balki” kabi soʻzlarni misol qilib keltiradi³⁹.

Fitrat ham Sh.Zunun kabi bu soʻzlarni koʻmakchi deb atab shunday deydi: Maʼlum soʻz turkumlaridan farqli oʻlaroq ular xech qanday qoʻshimcha olmaydi. Sintaktikada Fitrat ularni “qisqartma soʻzlar” deb nomlaydi. Uning fikricha, bu soʻzlar boshqa gap boʻlamlari kabi sintaktik vazifani bajarmaydi. Bunday yot soʻzlar kirish soʻzlar boʻladi. Gapda kirish soʻzlarning qoʻllanilishi haqida soʻz aytib, Fitrat shuni tasdiqlaydi: ularni xattoki gapdan chiqarilsa ham, maʼnosiga taʼsir qilmaydi. Menimcha, Fitratning bu gapiga qoʻshilib boʻlmaydi. Birinchidan, modal soʻzlar, gapning qanday maqsadda qoʻllanishidan qatʼiy nazar, gap maʼnosini u yoki bu darajada kuchaytirish yoki susaytirishi mumkin. Ikkinchidan, baʼzan shunday hollar boʻladiki, gapni toʻgʻri tushunish modal soʻzga bogʻliq boʻladi. Bu ayniqsa gap norealligini ifodalovchi modal soʻzlarga xosdir. Bunday hollarda feʼl mayli gap norealligini ifodalamaydi va modal soʻzning tushirib qoldirilishi gapning toʻgʻri maʼnoga ega boʻlishidan chetlatgan boʻlar edi.

Bu uzoq ish, ogʻir ish. Balki xavf-xatarli, qurbon talab qiladigan ish. (A. Muxtor)

Ehtimol u keyingi masala toʻgʻrisida erining fikrini bilib qoʻymoqchi edi. (A. Qodiriy)

Yuqoridagi misollarda koʻrilganidek, taxmin maʼnosi faqat modal soʻzlar bilan ifodalangan: balki, ehtimol. Shuning uchun bu soʻzlarni tushirib qoldirish gap maʼnosini oʻzgartirib yuborgan boʻlar edi.

V.V.Reshetova modal deb nomlangan bu soʻzlarni ravish tarkibida koʻrib chiqadi va alohida tur-taxmin ravishi sifatida ajratadi. Bu soʻzlar etimologiyasi haqida gapirayotib, u oʻzbek tilida taxmin ravishi yoʻqligi va ularning hammasi boshqa (fors va arab) tillaridan kelib chiqqanligini taʼkidlab oʻtadi.

Professor E.D.Polivanov oʻzbek tilida ravishlar mahsus alohida soʻz turkumi sifatida yoʻq deydi. Mening fikrimcha, shuning uchun E.D.Polivanov hech bir ishida na ravish, na modallik haqida hech qanday soʻz aytib oʻtmagan⁴⁰. Turk tillarida modallik nazaryasining rivojlanishi haqida birinchi etapni xulosa qilib, shuni aytish mumkin: Turk tilshunoslari, shu bilan birga, oʻzbek tilshunoslari bu soʻzlarni ravish, yuklama, koʻmakchi, undov va tuslanmaydigan soʻzlar sifatida koʻrib chiqqanlar. Ularning bari bu soʻzlarning boshqa soʻz turkumlaridan farqi borligini sezganlar va koʻrsatib oʻtganlar. Shundan koʻrinib turibdiki, bu modal soʻzlarni morfologiyadan mustasno qilish va ularni kirish soʻz, sintaksisning obʼekti sifatida koʻrib chiqishga sabab boʻlgan. 1936 yildan 1956 yillar mobaynida nashr qilingan, hattoki keyingilarida ham bu soʻzlar oʻzbek tili grammatikalarida,

³⁹Usmanova D., Uzakova L. Comparative Study of Uzbek and English Speech Etiquette // Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT. Volume 1. – Tashkent, 2021, – P. 60-63.

⁴⁰Polivanov E. Русская грамматика в соотношении с узбекским языком. – Tashkent: “Fan”, 1998. – P. 225.

morfologiya bo'limida uchratilmaydi. Faqat A.Usmonov va B.Avazov ning "O'zbek tili grammatikasi" (1939), shuningdek A.N.Kononovning «Грамматика узбекского языка» (1948) kitobida izoh qilib berilgan va "albatta", "birinchidan", "haqiqatdan" so'zlari ravish deb aytilgan.

N.Sayid, A.Yo'ldoshev "Grammatika" (1936) kitoblarida yozishlaricha, gapda so'zlovchi o'z nutqiga qanday munosabatda bo'lishini ifodalovchi kirish so'zlar uchraydi.

X.G'oziyev (1940-1941) ham kirish so'zlar haqida xuddi shu fikrni aytib o'tdi: nutqqa munosabatini bildirish uchun so'zlovchi kirish so'zlarni qo'llaydi.

A.Borovkov, Z.Ma'rufov, T.Shermuxamedov, (1934) o'zlarining darsliklarida kirish so'zlarni ko'p qo'llaniluvchan - "balki", "shubhasiz" va kam qo'llaniluvchan - "chog'i" so'zlariga bo'lgan, so'ng ularni sinfiylashtirib, yetti turga ajratilgan⁴¹. 1956-yilgacha o'zbek tili grammatik adabiyotida va hattoki keyingi ishlarida ham yuqorida aytib o'tilgan hamma mualliflarning kirish so'zlarga bo'lgan fikrlari xech qanday o'zgarishsiz qaytarilgan.

Modal so'zlar nazariyasining rivojlanishidagi uch etap, bu ularning mustaqil kategoriyaga ajralishi - turk tilshunosligida N.K.Dmitriev bilan boshlanadi va u boshqird tilidagi modal so'zlarni qandaydir mustaqil so'z va yuklama o'rtasida deb hisoblaydi.

N.A.Baskakov modal so'zlarni qoraqalpoq tilining yordamchi so'z turkumlari deb hisoblaydi. A.N.Kononov o'zbek tili va turk tili modal so'zlari va yuklamalarini yordamchi so'zlar qatori deb nomlaydi. O'zbek tili uchun modal so'zlar haqidagi birinchi ish Sh.Raxmatullayevning "Modal so'zlar" maqolasi bo'ldi. Bu maqolada muallif modal so'zlarni na asosiy, na yordamchi so'z turkumlariga bog'lamasdan ularni mustaqil so'z guruhlari deyishga yondashadi.

U.Tursunov va J.Muxtorov o'zlarining "Hozirgi zamon o'zbek tili" kitoblarida modal so'zlarni leksik - grammatik so'z qatori deb nomlaydilar. Lekin shuni eslatib o'tish joiz topdim: oxirgi paytlar modal so'zlar guruhi har xil so'z turkumlarida uchratilayapti va mualliflar ular kelib chiqqan so'z turkumlari bilan rasmiy o'xshashligini saqlab qolayotganligini ko'rsatib o'tishyapti⁴².

Ya.Pinxasov ham xuddi Sh.Raxmatullayev kabi o'zining hozirgi zamon o'zbek tili modal so'zlar haqidagi maqolasida ularni mahsus so'z guruhi deb ataydi.

S.Usmonov tomonidan yozilgan "O'zbek tili" kollektiv mehnati, "Morfologiya" bo'limida, modal so'zlar yuklamalar qatorida ko'riladi va so'z turkumlariga bog'lanadi.

⁴¹Pinxasov Ya. Цитологические сочинения. – Москва: Изд-во САГУ, 2010. – С. 216.

⁴²Nayda Yu. Наука перевод. – Москва: Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике: сборник научных трудов, 1970. – С. 204.

Shu usulda, turk tili va umuman, xususan o'zbek tilida modal so'zlarning rivojlanishidagi uchinchi etapni nihoya qilib, biz hozirgi zamon etapida ularning tabiati xususida mulohaza yuritamiz.

Juda ko'p hollarda modal so'zlar gapda ifodalangan so'zlovchining butun bir fikr o'yiga nisbatan bo'lgan munosabatini ko'rsatadi:

She is a delicate, little thing, perhaps nobody but me knows how delicate.

Y.M.Blox bunga shularni qo'shimcha qiladi⁴³.

Binobarin, modal so'zning bir so'z yoki iboraga tegishli va gapning boshqa bo'laklari bilan aloqasi bo'lmasligi mumkinligi tasodifiy xoldir. Masalan, quyidagi misoldagi kabi modal so'z gapning ikkinchi bo'lagiga ham ta'lluqli bo'lishi:

No one expected his arrival, except Rose presumably.

Modal so'zlarning qo'llanilishi gapning turiga bog'liq. Modal so'zning o'zidan ham gap yasash mumkin. Bu faqat umumiy savolga javob berishda bo'lishi mumkin. Bular "yes" yoki "no" javobli savollardir. Bu hollarda "certainly", "perhaps", "maybe" so'zlari ishlatilishi mumkin. Bunda modal so'z gapning asosiy bo'laklari bo'ladi. Darxaqiqat, ular gapdagi so'zlar bilan shu bilan farq qiladiki, modal so'zlar gapda kirish so'zi bo'lib kelishi mumkin.

"Are you coming?" savolida "may", "certainly" javob bo'lishi mumkin. Agar bu savolga "certainly" javob bo'lsa, u holda "certainly" so'zini kirish so'z deyish mumkin va javobning qolgani "I am" tushunarli. Bunday nazariya isbotlanmasa, Y.M.Blox "certainly" so'ziga gap degan nazariyani ma'qul ko'radi.

Modal so'zlar muammosi modallikka oid mujmal masala bilan bog'liqdir. Bu muammo qayta-qayta turli olimlar tomonidan ham ingliz tili, ham rus tilida, hamda umumiy lingvistikaning kengaytirilgan kontekstida ishlab chiqilgan.

Y.M.Blox so'zini shu gap bilan yakunlaydi: Biz bu yerda masalaning hamma aspektlari ustida ilmiy tadqiqot o'tkaza olmaymiz. Faqat shuni ta'kidlab o'tishim mumkinki, modallikni ifoda etuvchi ikki xil vosita mavjud: modal so'zlar – *perhaps, really, possibly, indeed, certainly...*

Modal fe'llar – *can, may, must, would.*

Hamma mualliflarning qarashlaridan kelib chiqib, modallik haqida shularni bayon etishim mumkin:

Ingliz tilida modallikning grammatik kategoriyasi mavjud bo'lib, u so'zlovchining predmetga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Modallik bir necha yo'llar bilan ifodalanadi: Modal so'zlar yordamida: *perhaps* (balki), *possibly* (mumkin), *evidently* (aniqki), *doubtless* (shubhasiz) va xokazolar. Biz ingliz tilidagi ilmiy – texnikaviy tekstlarda tez-tez uchrab turadigan majburiyat va imkoniyatni ifodalovchi modal so'zlarning predikativ turini ko'rib chiqamiz.

⁴³Blokh Y. A course in theoretical English. – Moscow; Press Release: Moscow, 1983. – P. 576.

A) Majburiyat:

Must – fe’l infinitivi bilan birgalikda ish-harakatning kuchga kirishi shartligini, hamda maslahat va buyruqni ifodalaydi. O‘zbek tiliga shart, shaxssiz gaplarda kerak, zarur deb tarjima qilinadi.

In passing through the metal, Metal dan o‘tayotganda, elektronlar ko‘p electrons must collide with many ionlar bilan to‘qnashishi zarur. ions.

To be to – infinitive bilan birgalikda rejalashtirilgan yoki ko‘zlangan reja dan kelib chiqqan xolda, “shart” ma’nosini bildiradi va o‘zbek tiliga “kerak” deb tarjima qilinadi.

The new line of the metro is to be Metroning yangi yo‘li keyingi yil commissioned next spring. bahorda qurilishga tushishi kerak.

To be to – ayniqsa inkor gaplarda va “only” so‘zi bilan bo‘lgan gaplarda “imkoniyat” ma’nosini ifodalashi mumkin.

This book was not to be found anywhere. Bu kitobni hech qayerdan topib bo‘lmas edi.

This kind of information is to be Bunday ma’lumotga faqat ko‘p obtained only with great difficulty. qiyinchilik bilan erishish mumkin.

Shuni nazarda tutish kerakki, “*To be to*” ba’zi bir hollarda modallikni ifodalamasligi ham mumkin. Bunday gaplarda biz ot-kesimli gaplarni nazarda tutamiz va “*To be to*” fe’li bu yerda semantik vazifani bajarmaydi, balki faqatgina fe’l bog‘lovchi sifatida keladi. Ingliz tiliga “- dan iborat” deb tarjima qilinadi.

The function of the catalyst is Bu katalizatorning vazifasi to accelerate the reaction. reaksiyani tezlashtirishdan iborat.

Should – fe’li infinitiv bilan birgalikda hamma shaxslarda qo‘llaniladi va burch yoki maslahat bilan bog‘liq “shart”, “lozim”, ma’nolarini ifodalaydi. O‘zbek tiliga “mumkin edi”, “kerak” deb tarjima qilinadi.

You should lower the voltage in Zanjirdagi tokni pasaytirish the circuit. kerak.

One should – shaxssiz gap bilan tarjima qilinadi.

One should take into Shuni hisobga olish kerakki, consideration that electrical currents elektr toki faqatgina to‘la-to‘kis flow only in complete circuits. zanjirdan o‘tadi.

Ought to – fe’li infinitiv bilan maslahatlashgan “shart” ma’nosini bildiradi va “should” fe’liga analogikdir, lekin kamdan –kam qo‘llaniladi. O‘zbek tiliga “kerak edi”, “shart”, “lozim”, “darkor” deb tarjima qilinadi⁴⁴.

He ought to know the U bu aralashmaning xususiyatini

⁴⁴Maxmudov N., Hurmonov A. O‘zbek tili nazariy grammatikasi. – Tashkent: “Fan”, 1996. – B. 196.

properties of the mixture.

bilishi darkor edi.

B) Imkoniyat:

Can – fe’li infinitive bilan harakatni bajarish uchun jismoniy imkoniyat, qobiliyatni ifodalaydi va o‘zbek tiliga “*qila olaman*”, “*bilmoq*” deb tarjima qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. Maxmudov N., Hurmonov A. O‘zbek tili nazariy grammatikasi. – Tashkent: “Fan”, 1996. – B. 196.
2. Blokh Y. A course in theoretical English. – Moscow; Press Release: Moscow, 1983. – P. 576.
3. Usmanova D., Uzakova L. Comparative Study of Uzbek and English Speech Etiquette // Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT. Volume 1. – Tashkent, 2021, – P. 60-63.
4. Nayda Yu. Наука перевод. – Москва: Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике: сборник научных трудов, 1970. – С. 204.